

Djanaliyeva G.A.,
*TMS instituti “Pedagogika va psixologiya”
kafedrası katta o‘qituvchisi*



Sayfiddinova Sh.S.,
*TMS instituti “Pedagogika va psixologiya”
yo‘nalishi talabasi*



YOSHLAR O‘RTASIDA IJTIMOY MOSLASHUVDA TA’LIM VA TARBIYANING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarning ijtimoiy maslashuvida ta’lim va tarbiyaning ahamiyati o‘rganiladi. Yoshlar ta’lim orqali ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan axloqiy va madaniy me’yorlarni o‘zlashtiradilar. Shunday qilib, ta’lim va tarbiya yoshlar uchun ijtimoiy maslashuv jarayonida muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Maqolada yoshlar ishi, ularning ijtimoiy maslashuvi va ta’limning bu jarayondagi o‘rni tahlil qilinadi.

Аннотация. В этой статье изучается значение образования и воспитания в социальной адаптации молодежи. Через образование молодежь усваивает нравственные и культурные нормы, необходимые для активного участия в общественной жизни. Таким образом, образование и воспитание рассматриваются как важный фактор в процессе социальной адаптации молодежи. В статье анализируется работа молодежи, ее социальная адаптация и роль образования в этом процессе.

Annotation. This article examines the significance of education and upbringing in the social adaptation of youth. Through education, young people acquire the moral and cultural norms necessary for active participation in public life. Therefore, education and upbringing are shown as an important factor in the process of social adaptation for young people. The article analyzes youth work, their social adaptation, and the role of education in this process.

Tayanch soʻzlar: yoshlar ijtimoiy moslashuvi, taʼlim va tarbiya, ijtimoiy adaptatsiya, axloqiy va madaniy meʼyorlar, tarbiyaning rivojlanishdagi roli, taʼlimning ijtimoiy xususiyatlari, yoshlarning jamiyatdagi oʻrni, jamiyat va yoshlar.

Ключевые слова: социальная адаптация молодежи, образование и воспитание, социальная адаптация, нравственные и культурные нормы, роль воспитания в развитии, социальные особенности образования, место молодежи в обществе, общество и молодежь.

Key words: social adaptation of youth, education and upbringing, social adaptation, moral and cultural norms, the role of upbringing in development, social characteristics of education, the role of youth in society, society and youth.

Kirish. Hozirda respublikamizning barcha sohalarida boʻlgani kabi taʼlim borasida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy tuzilmalarni insonparvarlashtirishda yangi tamoyillarga asoslanish, bozor iqtisodiyoti munosabati qonunlari, mafkuraviy va axloqiy tamoyillarning oʻzgarishi ishsizlik, moddiy yetishmovchilik, bolalarning nazoratsizligi, oilalarning ajralib ketishi, gʻayriijtimoiy hodisalar; alkogolizm, narkomaniya, jinoyatchilik, fohishalik kabi ijtimoiy muammolarning ham yechimini topishga qaratilgan chora va tadbirlarni ishlab chiqishga asos boʻlmoqda.

Asosiy qism. Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning hamma narsani egallashga boʻlgan obyektiv ehtiyoji jarayonida paydo boʻladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir obyektiv ehtiyoj – oʻziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi roʻy beradi. Bu hodisa shunda namoyon boʻladiki, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual, faqat shu shaxsga tegishli tarzda namoyon boʻladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlariga ega boʻladi.

Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv va individuallashuv jarayonlari bilan bogʻliq ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni insonning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvidir. moslashuv subyekt va ijtimoiy muhit faolliklarining yaqinlashuv jarayoni va natijasidir¹.

Agar shaxsning jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individualashuv jarayonlari oʻrtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi roʻy beradi. Shu bilan birga, bu yerda shaxs va muhitning oʻzaro taʼsir etishi ham sodir boʻladi. Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv oʻrtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin.

¹ Нурматова Ш. Ёшлар тарбияси ва ижтимоий маслашув. – Тошкент, 2010.

Ijtimoiy moslashuv — bu yoshlarning atrofdagilar bilan munosabatlarini mustahkamlash, hayotiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. Ta’lim va tarbiya esa bu jarayonni tizimli va samarali qilib o‘tkazishda asosiy vositadir.

Ijtimoiy moslashuv – bu shaxsning ijtimoiy muhitga joylashishi, ijtimoiy va madaniy qoidalar, qadriyatlar, jamiyatdagi turli odamlar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati. Ijtimoiy moslashuvning mazmuni yoshlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topish, o‘zini ijtimoiy faol shaxs sifatida yaratish jarayonidir. Bu jarayonda shaxs o‘z faoliyatini jamiyat talablari bilan muvofiqlashtiradi, insonlararo munosabatlarda o‘zini to‘g‘ri his qiladi va ijtimoiy etiket hamda qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi.

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi masalasi ularning ijtimoiy hayotga joylashishi, qiziqishlari, talablari va ehtiyojlari, shuningdek, ularning ma’naviy va axloqiy taraqqiyotini ta’minlashda ta’lim va tarbiyaning ahamiyati muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim va tarbiyaning yoshlarning ijtimoiy moslashuvdagi ahamiyatini tushunish uchun, birinchi navbatda, ijtimoiy moslashuvning asosiy jihatlarini va yoshlarning ijtimoiy hayotga qadam qo‘yish jarayonini tahlil qilish lozim².

Ta’limning yoshlar ijtimoiy moslashuviga ta’siri – ta’lim yoshlarning dunyoni tushunishini va boshqalar bilan muloqot qilishini shakllantiradi. Masalan, maktab va oliy ta’lim muassasalarida yoshlar bilimlar olish bilan birga, turli xil fikrlar, madaniyatlar va munosabatlar bilan tanishadilar. Bu, o‘z navbatida, ularning ijtimoiy moslashish qobiliyatlarini oshiradi. Masalan, universitetda o‘quvchilar nafaqat fan va kasbga oid bilimlarni, balki jamiyatda faol bo‘lish va tinchlikka o‘zaro hurmat bilan yondashishni ham o‘rganadilar.

Tarbiyaning yoshlar ijtimoiy moslashuvdagi ahamiyati – tarbiya, yoshlarga axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarni o‘rgatishga xizmat qiladi. Yaxshi tarbiyalangan yoshlar jamiyatda o‘z o‘rnini topishda va boshqalar bilan muammolarni samarali hal etishda muvaffaqiyatga erishadilar. Masalan, oilada ota-ona tomonidan olib boriladigan tarbiya yoshlarning ta’limga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi, ularning mehr-muhabbat, hurmat va mas’uliyat hissini rivojlantiradi. Bu narsalar yoshlarning ijtimoiy moslashuvda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.

Ijtimoiylashtirish insonparvarlikning mohiyatini tushunib yetishga ko‘maklashadi, insonni totalitarizm asoratlaridan xalos etadi, o‘zligini

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi masalasi, ularning ijtimoiy hayotga joylashishi, qiziqishlari, talablari va ehtiyojlari, shuningdek, ularning ma’naviy va axloqiy taraqqiyotini ta’minlashda ta’lim va tarbiyaning ahamiyati muhim rol o‘ynaydi.

² Мамадалиев Р. Таълим ва тарбиянинг ижтимоий ривожланишдаги роли. — Самарканд, 2015.

*Insonparvarlikka
asoslangan ta'lim
– ijtimoiy fanlar va
yondosh fanlarning
funktsiyalarini
kengaytiradi,
ta'lim jarayonini,
mutaxassis
shaxsi va uning
dunyoqarashi
yaxlitligini
ta'minlaydi.*

anglatadi. Bu maqsadga bilimsiz erishib bo'lmashligi ma'lum. Ta'limni ijtimoiylashtirish insonni bu dunyoda borligini anglashga imkon beradi. U faoliyat usullarini anglash va samarali izlash, o'ziga, boshqalarga, tabiatga nisbatan uyg'un munosabatda bo'lish imkoniyatini beradi. Ta'lim jarayonini ijtimoiylashtirish natijasida o'quvchi inson mohiyatini anglaydi. O'z hayoti davomida inson to'g'risida hosil qilingan tushunchalar asosida shaxs haqiqiy fuqaro bo'lib yetishadi.

Insonparvarlikka asoslangan ta'lim – ijtimoiy fanlar va yondosh fanlarning funksiyalarini kengaytiradi, ta'lim jarayonini, mutaxassis shaxsi va uning dunyoqarashi yaxlitligini ta'minlaydi.

Ta'limni insonparvarlashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarga tegishli bilim, ko'nikma, malaka berish, ularning insoniy dunyoqarashini shakllantirishdan iborat. U bo'lajak fuqarolar tomonidan insonlar faoliyatining turli sohalarida insonparvarlik g'oyasi va qadriyatlarini amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ta'limda metodologik hayot tajribasiga ziddiyatli holatlarda ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chiqishni taqozo etadi:

- ijtimoiy – shaxsiy hayot tajribasiga asoslangan muntazam davom etadigan jarayon hisoblanadi;
- real vaziyatdan kelib chiqib, ziddiyatli holatlarida ijtimoiy moslashuv modelini ishlab chiqishni taqozo etadi;
- mavjud amaldagi holatga doim moslashish jarayoni hisoblanadi;
- shaxslararo aloqalarni qamrab oladi;
- shaxsning shakllanish jarayonini yo'naltiradi.

Ijtimoiy ta'lim – tashabbuskor guruhlar, hamjamiyatlar, jamoalar, odamlarning o'zini o'zi boshqaradigan uyushmalarning hayoti va ixtiyoriy faoliyatining bir qismi sifatida muntazam, uzluksiz ta'limni tashkil etish konsepsiyasi va amaliyoti.³

Ijtimoiy ta'lim konsepsiyasi quyidagi g'oyat muhim prinsiplarni o'z ichiga oladi:

- u ayrim odamlarda ham, guruhda ham o'z kuchlariga ishonishni va ularga tayanishni rivojlantirishga qaratilgan;
- u hamjamiyatda, hamjamiyat bilan birgalikda va hamjamiyat uchun ta'limning variantlilik prinsiplari asosida amalga oshirilgan uzluksiz ta'limni qo'llab-quvvatlaydi.

Yoshlar o'rtasida ijtimoiy moslashuvni yaxshilashda har tomonlama faol tarbiya muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, yoshlar klublari, ijtimoiy

³ Солиева З. Ижтимоий педагогика. – Тошкент, 2021.

tashkilotlardagi faoliyat, sport va madaniy tadbirlar yoshlar o'rtasida moslashuv jarayoniga ko'maklashadi. Shuningdek, yoshlar o'z faoliyatlari orqali jamiyatga o'z hissasini qo'shishni o'rganadilar, bu ularga ijtimoiy munosabatlarda mustahkam o'rin topishga yordam beradi.

Ta'lim va tarbiyaning yoshlarning liderlik qobiliyatlariga ta'siri.

Ta'lim va tarbiya yoshlarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Liderlik ko'nikmalari, asosan, yoshlar uchun jamiyatda o'z o'rnini aniqlashga yordam beradi. Masalan, oliy ta'limdagi o'quvchi yoshlar faol ijtimoiy muhitda qatnashish, jamoalarni boshqarish va boshqalarga rahbarlik qilishni o'rganadilar.

Shu tariqa, ta'lim va tarbiya yoshlar uchun nafaqat bilim olish manbayi, balki ularning ijtimoiy moslashuvi, axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishi va jamiyatdagi mavqeyini belgilashda muhim omildir. Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi ularning kelajakda faol jamiyat a'zosi bo'lib shakllanishida muhim bosqichdir⁴.

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar.

Yoshlar o'z ijtimoiy moslashuvi jarayonida turli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu qiyinchiliklar, avvalo, quyidagi omillarga bog'liq:

1. Qat'iy ijtimoiy talablar: Yoshlar ko'pincha ijtimoiy muhitdan yuqori darajadagi talablarni sezishadi. Bu talablarga javob berish ularning ijtimoiy hayotini, qo'shilish qobiliyatlarini va o'z jamiyatlariga moslashishini qiyinlashtiradi.

2. Oila va maktab o'rtasidagi ziddiyatlar: Oiladagi tarbiya va maktabdagi ta'lim jarayoni o'rtasidagi ziddiyatlar yoshlarning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Ijtimoiy muhitning har xilligi: Yoshlar ijtimoiy muhitdagi turli xil mentalitetlar, qo'yilgan talablar va mahalliy qoidalarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Xulosa. Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi jarayonida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati beqiyos. Ta'lim yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish bilan birga ularni jamiyatdagi mavjud qoidalarga moslashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tarbiya esa yoshlarning ma'naviy va axloqiy darajasini shakllantirishga, ularga ijtimoiy muhitdagi munosabatlar va qadriyatlarga e'tibor qaratishga yordam beradi. Ta'lim va tarbiya yoshlarning ijtimoiy moslashuviga yo'l ochib, ularning barqaror va muvaffaqiyatli shaxs bo'lib shakllanishlarini ta'minlaydi.

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi jarayonida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati beqiyos. Ta'lim yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish bilan birga ularni jamiyatdagi mavjud qoidalarga moslashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

⁴ Аббасов В. Ёшлар ижтимоийлашуви ва таълим. — Тошкент, 2018.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Nurmatova Sh. Yoshlar tarbiyasi va ijtimoiy maslashuv. – Toshkent, 2010.*
2. *Mamadaliyev R. Ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy rivojlanishdagi roli. – Samarqand, 2015.*
3. *Abrorov V. Yoshlar ijtimoiylashuvi va ta'lim. – Toshkent, 2018.*
4. *Soliyeva Z. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent, 2021.*